

SO`Z ERKINLIGI

Muzafarov Mirzoramolbek Yokubkamolovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so`z erkinligi haqida, . Konstitutsiyaga ko`ra, "har kim fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi huquqiga ega" ekanligi haqida, Demokratik mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining faoliyati So`z erkinligiga asoslanganligi haqida, So`z va fikrlash erkinligini huquqiy kafolatlash huquqiy demokratik davlatning ajralmas qismi hisoblanishi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *so`z erkinligi, inson, shaxs, fikr yuritish, ommaviy axborot, demokratiya, davr, huquq.*

So`z erkinligi — insonning asosiy shaxsiy va fuqarolarning siyosiy huquqlaridan biri; hozirgi davrda aksariyat mamlakatlarda "axborot erkinligi" deb ataladigan umumiy huquqning tarkibiy qismi. O`z fikrini ommaviy tarzda bayon etish imkoniyatini bildiradi. So`z erkinligiga demokratiya ko`rinishlaridan biri sifatida qaraladi. O`zbekistonda So`z erkinligi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan. Konstitutsiyaga ko`ra, "har kim fikrlash, so`z va e`tiqod erkinligi huquqiga ega" (29modda). O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bo`yicha har kim o`zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ham ega. Biroq amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo`lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkinligi Konstitutsiyada o`z ifodasini topgan. O`zbekiston Respublikasining "Davlat sirlarini saqlash to`g`risida"gi qonunida davlat sirlari toifalari aniqlangan va ular haqidagi ma`lumotlarni olish va tarqatish chegaralangan.

Demokratik mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining faoliyati So`z erkinligiga asoslangan. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham alohida moddada ana shu qoida alohida ta`kidlab o`tilgan. Unga ko`ra, "ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiqshaydi. (67modda). Fuqarolar ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniye va radio, matbuotda o`z fikrlarini erkin bayon qilishi, so`zlashi mumkin.

Erkin fuqarolik jamiyatining qonunchilik va sud amaliyoti So`z erkinligi suiste`mol qilinishining oldini olish maqsadida unga nisbatan muayyan cheklashlar tizimini ishlab chiqqan. Xususan, jahonning ko`pchilik davlatlarida So`z erkinligidan qonuniy davlat hokimiyatini zurlik bilan ag`darish, davlat siri va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirni oshkor qilish, jinoyatlar sodir etishga undash, milliy, irqiy, diniy va boshqa adovatni keltirib chiqarish, boshqa shaxslarni haqoratlash va tuhmat qilish, jamoat axloqi va odobilani buzish maqsadida foydalanish man qilinadi. Bu haqda qonunchilikda tegishli yuridik javobgarlik belgilanadi. Favqulodda rejim va harbiy holat amal qilayotgan davrda So`z erkinligini cheklashlar ortishi mumkin.

O'zbekistonda So'z erkinligiga oid konstitutsiyaviy qoidalar quyidagi qonunlarda aniklashtirilgan va rivojlantirilgan: "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida" (1997), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997), "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida" (1997), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida" (1996), "Noshirlik faoliyati to'g'risida" (1996), "Reklama to'g'risida" (1998), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida" (2002). Ushbu qonunlarning asosiy maqsadi O'zbekistonda So'z erkinligini ta'minlash kafolatlariga, har kimning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgandir.

Fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hamda uni ifodalash insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Axborot, undan foydalanish, uni tahlil qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda inson yuksalishining asosiy shartidir.

So'z va fikrlash erkinligini huquqiy kafolatlash huquqiy demokratik davlatning ajralmas qismi hisoblanadi, — deydi A. Abdullayev. — Bu fikrlar va qarashlar xilma-xilligini, fuqarolarning demokratik jarayonlarda to'laqonli ishtirok etishini ta'minlaydi.

Fikr bildirish erkinligi asosiy huquq odamlar tafakkur qilmasdan fikrlarini erkin aytishlari, ifoda etishlari va tarqatishlari kerak. Shunday qilib, u fuqarolik va siyosiy erkinlik, demokratik tizimlarni tavsiflovchi va boshqa huquqlarni hurmat qilish uchun muhim bo'lgan ijtimoiy va ijtimoiy hayot sohasiga nisbatan.

Demokratiyada so'z erkinligi Bu juda muhimdir, chunki u siyosiy manfaatdorlar va jamiyatning boshqa a'zolari o'rtasida jamoatchilikni qiziqtirgan masalalar bo'yicha bahslashish, muhokama qilish va fikr almashish imkoniyatini beradi. Buning sababi Biz so'z erkinligi bo'lmagan jamiyatni demokratik deb hisoblay olmaymiz.

Boshqa tomondan, so'z erkinligi Bu odamlarning shaxsiy hayoti uchun yana bir muhim erkinlikning jamoat maydonidagi haqiqiy va aniq namoyonidir: fikr erkinligi.

Shunga qaramay, ifoda erkinligi burch va mas'uliyatni nazarda tutadi, uchinchi shaxslarning huquqlarini, davlatni, jamoat tartibini yoki fuqarolarning axloqiy salomatligini himoya qilish uchun tubdan. Masalan, urush foydasiga targ'ibot qilayotganlar, nafrat uchun kechirim so'raganlar, irqiy yoki diniy intoleransni namoyon etganlar, zo'ravonlikni qo'zg'agan yoki noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirganlar haddan tashqari narsalarga duch kelishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1.Ziyomuxamedov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. –T: "Turon-Iqbol". 2008 yil. 112-bet.

2.Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2010y. 304 b.

3.Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzaev X., Pedagogik-psixologiya (o'quv qo'llanma). –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2009y. 490 b.